

**Qahramon ASHURALIYEV**

МАЖБУРИЙ НУСXA

# Muhabbat rishtalari

(She'rlar)

«NAMANGAN»  
nashriyoti 2011

84(59)7-938.0908.

NATLIB.UZ

1001-2644,50-1470250  
NG----- 2011  
1002 - (1,0) - (12)

ISBN - 978 - 9943 - 328 - 47 - 1

2013/18  
© «Namangan» nashriyoti-2011 yil.  
#1419

10 40773  
0

## **FAXR HISSI**

Vatan mening asl uyimsan,  
Kundan-kunga ochilar ko'rking.  
Sensiz qanday yashayman axir,  
Quchog'ingda baxtimni ko'rdim.

Vatan mening asl uyimsan,  
Senda surgum davru davronlar.  
Yov yo'lga qalqon bo'lishib,  
Jonin tikkan senga o'g'lonlar.

Vatan mening asl uyimsan,  
Orzularim ushalar senda.  
Mehring esa qonimga o'tgan,  
Faxr hissi jo'sh urar menda.

Vatan mening asl uyimsan,  
Qadrlisan, azizsan jonday.  
Bu dunyoda topib bo'lurmi,  
Hur, go'zal yurt -- O'zbekistonday.



## *MANGU TURSIN*

Har bayramda quvonaman,  
Tillo topib olganday.  
Mustaqillik buyuk ne'mat,  
Zardan a'lo har qanday.

Yurtim doim sening erking,  
Deyman, bo'lsin mustahkam.  
Poydevori metin bo'lsin,  
Mangu tursin mustahkam.

## *QO'LLARIMDAN TUTASAN*

Mustaqillik tengdoshiman,  
Omadim bor, o'ksinmam.  
Yigirmaga to'ldi yoshim,  
G'urur yashar ko'ksimda.

Boshim baland, mag'rur bo'lib,  
Bu haqda she'r bitaman.  
Sen-chi Vatan, o'qi deya,  
Qo'llarimdan tutasan.

## *BAYROG'IMIZ HILPIRAR*

Vatanimning ramzidir u,  
Hammamiz uchun faxrli.  
Moviy rangli bayrog'imga,  
Tikilaman mehrli.

Yurt tuyg'usi yuragimda,  
Tinmay, tinmay jo'sh urar.  
O'zbekligim bildirib u,  
Xorijda ham hilpirar.

## *FARZANDINGMAN*

Qishlog'imning tog'i go'zal,  
Ko'm-ko'k rangga bo'yalgan.  
Majnuntollar sochin yoyib,  
Soy bo'yiga suyangan.

Farzandiman, men ham uni,  
Ardoqlayman qalbimda.  
Olmoslikman, degan bir so'z,  
Doim uchar labimdan.

## **ONAM**

Mening uchun jonin ayamay,  
O'zin o'tga urgan bu onam.  
Ichda g'ami yonib tursa ham,  
Sezdirmasdan kulgan bu onam.

O'g'lim baxtli yashasin, deya,  
Tog'day panoh bo'lgan bu onam.  
O'qisin deb, yelib-yugurib,  
Sochi oqqa to'lgan bu onam.

Qiynalsa-da ortga chekinmay,  
O'z so'zida turgan bu onam.

## **YARASHADI KIYGANDA**

Chust do'ppisi boshimda,  
Qarang, juda tovlanar.  
Uni tikkan qiz ko'ngli,  
Ipak bilan bog'lanar.

Yarashadi kiyganda,  
Ajib bir his tuyasan.  
Chustlikman deb, suyunib,  
Faxrlanib qo'yasan.

## *HALI YOSHMAN*

Kimlargadir yoqmas she'rim,  
Hozircha bu mashq xolos.  
Fikrlarim juda sodda,  
Kulmang, faqat iltimos.

Hali yoshman nazm bog'in,  
Sayr aylayman, sokin, jim.  
Izlansam gar bir kun kelib,  
Charxlanadi qalamim.

## *QADDRDON DARGOH*

Bir umr sen qaddrdon dargoh,  
Menga hamdam bo'lgan maktabim.  
Fan sirlarin terdim hijjalab,  
Senda bilim olmagan ayt, kim?

Ustozlarim jilmayib, boqib,  
Turganlari yodimda hamon.  
Goh injiqlik qilsak kechirgan,  
Xizmatlari bir olam-jahon.

Unutmayman seni maktabim,  
Qo'msab-qo'msab yashayman seni.  
Dargohingda qolgan izlarim,  
Sen ham aslo unutma meni.

### **YULDUZIM**

Olis osmon cheksiz hag'rida,  
Mudom jivir-jivir etasan.  
Ne ishing bor, axir sen aytgin,  
Meni imlab-imlab netasan?

Balki, sensan taqdir yulduzim,  
Demoqchisan, meni ol tanib,  
Hatto senga yarim tunda ham,  
Boqqum agar ketsam uyg'onib.

### **SINGLIM HAQIDA**

Mening singlim bir dona,  
Ismi esa Durdona.  
Har ishga shay turadi,  
Aytganimni qiladi.

Goh hovliga suv urar,  
Toza qilib supirar.



Chiqindini xush ko'rmas,  
Biror zum ham tinch turmas.

Onam xursand singlimdan,  
Men ham shodman ko'nglimdan.

### ***YO'LDAMIZ BUGUN***

Hayot bizga katta imtihon,  
Sinov ekan, har bir lahzasi.  
O'ylab qadam bosgan odamning  
Ushaladi doim maqsadi.

Imtihonni topshirib yaxshi,  
Tilakka ham yetarmiz bir kun.  
Hozir esa do'stginam faqat  
Hali bizlar yo'ldamiz bugun.

### ***QADRIGA YETAYLIK***

Salomat yuribmiz, shudir baxtimiz,  
Insonlar qadriga yetaylik bu dam.  
To'rt muchamiz bizni doim but bo'lib,  
Bundan ham charog'on ko'rinsin olam.

Dilimizda unsin, yaxshi tilaklar,  
Ezgulik bizlarni yo'lga boshlasin.  
Bu olamda esa xotirjam, omon,  
Har bir odam dadil qadam tashlasin.

## *CHIN DO'STDEK YASHAGIN*

Chin do'stni topmoqlik juda qiyindir,  
Gohilar do'stingman, deya pildirar.  
Ishonding ularga, sodda ekan deb,  
Ortingdan masxara qilib kuldilar.

Paytini topsalar, g'imirlab qolar,  
Chayondek nishini suqar bexato.  
Goh zarar yetmasa, boshlari og'rib,  
Ichlarin it tirnab, bo'lishar ado.

Asrasin bundayin tulki do'stlardan,  
Doimo sodiqlar bo'lishsin hamdam.  
Besh kunlik dunyoda nima yetmaydi,  
Chin do'stdek yashagin, ey, buyuk odam.

### *OY BILAN SUHBAT*

Oyning aksi ko'rinar suvda,  
Go'yoki u jilmayib boqar.  
Oy nuriga belanib bu dam,  
Soy suvlari shoshilib oqar.

Oyning aksi ko'rinar suvda,  
Patir nonday hajmi ham katta.

Yuragimda uyg'onar tuyg'u,  
Zavqlanaman qarab albatta.

Oyning aksi ko'rinar suvda,  
Xayolimni olgan o'shadir.  
Bu manzara aqlim egallab,  
Ilhomimga ilhom qo'shadir.

Shu dam ko'kka boqdim, to'lin oy-  
Biram nurli, yog'duli ekan.  
Hayron bo'lib so'radim undan,  
«Yuzing kulgan, g'aming yo'qmikan?».

## ***BAHOR***

Go'zalikka burkangan olam,  
Zavqqa to'lib oqayotir soy.  
Lolalardan to'shalgan gilam,  
Qir-adirda o'zgacha chiroy.

Qushlar esa bahorni kuylab,  
Jo'r bo'lishib, sayrashar chunon.  
Suvlar ariqlarda shildirab,  
Go'yo qo'shiq aytadi bu on.

Shabbodalar esadi mayin,  
Nimanidir qo'yar shivirlab.  
Go'zallikka mahliyo bo'lib,  
Bor vujudim ketar jimirlab.

### *KUZ YOMG'IRI*

Kuz yomg'iri namuncha,  
Yog'averdi tinmasdan.  
Suvdek oqdi, sharillab,  
Bulutlar hech jilmasdan.

Tabiatning g'ubori,  
Rosa ketdi yuvilib.  
Unda dov-u daraxtlar,  
Bu dam oldi cho'milib.

### *QUVONCH SIG'MAS*

Kumush qorli qish keldi,  
Atrof oqqa belandi.  
Osmon esa tinmayin,  
Laylakqorni elardi.

Par yostiqa o'xshar qor,  
Yer yuzini bezadi.

Yuzni asta chimchilab,  
Sovuq bu dam kezadi.

Bolalarning quvonchi,  
Sig'mas sira ichiga.  
Ular uchib yaxmalak,  
Bayram qilar ko'chada.

### *TO'RTLILKLAR*

Ustozim aytarlar, ilm olgin deb,  
Gohida qo'yarlar juda ham koyib.  
Men xafa bo'lmayman, sira ham bundan,  
Shogird bo'lgum bir kun ularga loyiq



Intilganga tole yor, intiling, do'stlar,  
Orzular yo'lida siz tashlang qadam.  
Bilim bir chashmadirki, sipqoring qonib,  
Tafakkur xazinasi sizda bo'lsin jam.



Farishtadek onam bor mening,  
Ko'zlaridan yog'iladi nur.  
Barq uradi, yuzida mehr,  
Quyoshdayin tafti juda zo'r.

## *KELINCHAK*

Oq libosda kelinchak bo'lib,  
Yoringiz-la tashlaysiz qadam.  
Ko'ylagingiz biram yarashgan,  
Sizni ko'rib yashnaydi olam.

Kuyov bola kelishgan rosa,  
Ikkingiz ham juda munosib.  
«Qo'sha qaring» deya keksalar,  
Duo aylar sizni qo'l ochib.

Yaxshi kelin bo'lmoqchisiz siz,  
Har bir qizning shunday orzusi.  
O'zga uyning ostonasida,  
Muhrlanib bir iz qolgusi.

Siznikidir bu qadam, bu iz,  
U abadiy deyman saqlasin.  
Muhabbatning pok rishtalari,  
Bir-biringiz mahkam bog'lasin.



## M U N D A R I J A

|                                     |    |
|-------------------------------------|----|
| <i>Faxr hissi</i> .....             | 3  |
| <i>Mangu tursin</i> .....           | 4  |
| <i>Qo'llarimdan tutasan</i> .....   | 4  |
| <i>Bayrog'imiz hilpirar</i> .....   | 5  |
| <i>Farzandingman</i> .....          | 5  |
| <i>Onam</i> .....                   | 6  |
| <i>Yarashadi kiyganda</i> .....     | 6  |
| <i>Hali yoshman</i> .....           | 7  |
| <i>Qadrdon dargoh</i> .....         | 7  |
| <i>Yulduzim</i> .....               | 8  |
| <i>Singlim haqida</i> .....         | 8  |
| <i>Yo'ldamiz bugun</i> .....        | 9  |
| <i>Qadriga yetaylik</i> .....       | 9  |
| <i>Chin do'stdek yashagin</i> ..... | 10 |
| <i>Oy bilan suhbat</i> .....        | 10 |
| <i>Bahor</i> .....                  | 11 |
| <i>Kuz yomg'ri</i> .....            | 12 |
| <i>Quvonch sig'mas</i> .....        | 12 |
| <i>To'rtliklar</i> .....            | 13 |
| <i>Kelinchak</i> .....              | 14 |

*Adabiy - badiiy nashr*

**Qahramon ASHURALIYEV**

## Muhabbat rishtalari

(She'rlar)

*Muharrir: Mirzadavlat Yunusov.*  
*Tex. muharrir: No'monxon Toshxojayev.*  
*Kom. operatori: Ismoilxon Toshxojayev.*  
*Musahhih: Sultonxon Xojayev.*

Terishga 18.12.2011 yil berildi. Bosishga 26.12.2011 yil ruxsat etildi. Shirift garniturası PANDA Times UZ Lat. Gazeta qog'oziga ofset usulida bosildi. Bichimi 60x42. 1/16. Shartli bosma tabog'i 1,25. Nashriyot hisob tabog'i 1,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 586. Bahosi kelishilgan narxda.

**Nashriyot litsenziya raqami AN-156**  
**2009 yil 14 avgustda berilgan.**

«Namangan» nashriyoti. Namangan shahri,  
Navoiy ko'chasi, Matbuot uyi, 3-qavat.

«Chust bosmaxonasi» MCHJ  
Chust shahri, So'fizoda ko'chasi 8-uy.